



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **38,9** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,7** mingtaga oshgan yoki **6,9** % ga ko‘paygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-dekabrida **8,0** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2021-2025- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2024- y.		2025- y.
2008	Oltiariq tumani	2478
1285	Qo'shtepa tumani	1466
1337	Bag'dod tumani	1820
1561	Buvayda tumani	1460
1234	Beshariq tumani	1601
1662	Quva tumani	2255
1850	Uchko'prik tumani	2327
1405	Rishton tumani	2404
1004	So'x tumani	891
1725	Toshloq tumani	1743
1594	O'zbekiston tumani	2357
1580	Farg'ona tumani	2126
1745	Dang'ara tumani	1649
970	Furqat tumani	1110
894	Yozyovon tumani	1387
5849	Farg'ona shahar	5038
3944	Qo'qon shahar	2959
1413	Quvasoy shahar	1602
3178	Marg'ilon shahar	2290

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **38 963** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 949** tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida **5 038** tani yoki jamiga nisbatan **12,9** % ni tashkil etdi.

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Farg‘ona sh	15,5
Quvasoy sh	15,7
Qo‘qon sh	9,5
Marg‘ilon sh	9,0
So‘x t	10,5
Dang‘ara t	9,2
Oltiariq t	10,7
Toshloq t	7,9
Uchko‘prik t	9,5
Furqat t	8,6
Yozyovon t	11,5
Farg‘ona t	9,5
O‘zbekiston t	9,9
Rishton t	11,0
Buvayda t	5,8
Qo‘shtepa t	7,0
Quva t	8,1
Bag‘dod t	7,7
Beshariq t	6,5

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,5** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,6** birlikka ko‘paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Quvasoy shahrida **15,7** birlik, Farg‘ona shahrida **15,5** birlik, Yozyovon tumanida **11,5** birlik, Rishton tumanida **11,0** birlik va Oltiariq tumanida **10,7** birlikka yetdi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Quvasoy shahar
– 15,7 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Quva tumani
– 8,1 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Buvayda tumani
– 5,8 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Quvasoy shahrida **15,7** birlik, Farg'ona shahrida **15,5** birlik, Yozyovon tumanida **11,5** birlik, Rishton tumanida **11,0** birlik Oltiariq tumanida **10,7** birlik va So'x tumanida **10,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2025- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Quvasoy shahri

15,7

Yozyovon tumani

11,5

Oltiariq tumani

10,7

Farg'ona shahri

15,5

Rishton tumani

11,0

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

368	Oltiariq t.	347
338	Qo'shtepa t.	283
302	Bag'dod t.	235
350	Buvayda t.	248
276	Beshariq t.	257
420	Quva t.	274
310	Uchko'prik t.	273
326	Rishton t.	308
239	So'x t.	146
464	Toshloq t.	247
295	O'zbekiston t.	249
277	Farg'ona t.	251
342	Dang'ara t.	184
233	Furqat t.	177
243	Yozyovon t.	324
1 436	Farg'ona sh.	949
788	Qo'qon sh.	508
455	Quvasoy sh.	273
574	Marg'ilon sh.	416

2024- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – **16,0** %, Qo'qon shahri – **8,5** %, Marg'ilon shahri – **7,0** %, Oltiariq tumani – **5,8** %, Yozyovon tumani – **5,4** %, Rishton tumani – **5,2** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 2 600 ta, sanoatda 1 238 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 447 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona shahrida 949 ta, Qo'qon shahrida 508 ta hamda Marg'ilon shahrida 416 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida Farg'ona viloyatida jami **39 947** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **17 321** (yoki **43,4 %**) ta, sanoat sohasida – **8 907** (yoki **22,3 %**) ta, xizmatlar sohasida – **8 864** (yoki **22,2 %**) ta, qurilish sohasida – **2 306** (yoki **5,8 %**) ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 539** (yoki **6,4 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-dekabrda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **73,1** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,9** punktga ko'paygan.




2024- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,7** % ni, qishloq xo'jaligida **95,5** % ni, yo'lovchi tashishda **96,5** % ni, yuk aylanmasida **95,9** % yuk tashishda **93,4** % ni, chakana savdoda **90,2** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **26 178,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo'qon shahri (**3 754,0** mlrd. so'm), Farg'ona shahri (**3 207,9** mlrd so'm), Uchko'prik (**2 652,1** mlrd so'm), Marg'ilon (**1 699,8** mlrd so'm), Beshariq (**1 061,4** mlrd so'm) va Dang'ara (**970,7** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. So'x tumanida (**69,6** mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, % da

2024- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 54,5 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yozyovon tumani (84,6 %), Marg'ilon shahri (81,8 %), Buvayda tumani (81,6 %), Furqat tumani (75,5 %), Dang'ara tumani (74,0 %), Beshariq tumani (73,6 %), Uchko'prik tumani (63,1 %), Oltiariq tumani (57,7 %), va Bag'dod tumani (56,1%) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Farg'ona sh	2 279,2	85,9
Qo'qon sh	699,5	79,7
Toshloq t	629,5	97,6
Marg'ilon sh	597,9	46,4
O'zbekiston t	553,9	96,7
Quva t	410,6	95,2
Oltiariq t	361,4	86,8
Qo'shtepa t	358,5	58,9
Farg'ona t	312,7	60,5
Bag'dod t	311,9	93,6
Uchko'prik t	310,8	94,9
Beshariq t	303,2	95,7
Quvasoy sh	296,8	87,1
Dang'ara t	267,2	61,0
Buvayda t	248,4	71,1
Yozyovon t	201,3	87,1
Rishton t	160,9	95,0
Furqat t	160,9	95,0
So'x t	133,3	92,5

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **13 098,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **82,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,5** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (**2 279,2** mlrd so'm), Qo'qon shahri (**699,5** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**629,5** mlrd so'm), Marg'ilon shahri (**597,9** mlrd so'm), O'zbekiston tumani (**553,9** mlrd so'm), Quva tumani (**410,6** mlrd so'm) hamda Oltiariq (**361,4** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **15 535,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **69,4 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **124,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Farg'ona shahri (**3 111,0** mlrd so'm), O'zbekiston tumani (**2 237,5** mlrd so'm), Uchko'prik tumani (**2 059,3** mlrd so'm), Qo'qon shahri (**1 479,8** mlrd so'm), Quvasoy shahri (**922,6** mlrd so'm), Oltiariq tumani (**690,9** mlrd so'm) qayd etildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya haimi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **42,2** trln so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,0** % ni tashkil qildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (3 926,1 mlrd so'm), Rishton tumani (3 307,6 mlrd so'm), Qo'shtepa tumani (3 232,4 mlrd so'm), Bag'dod tumani (2 983,4 mlrd so'm), Quva tumani (2 957,4 mlrd so'm), Farg'ona tumani (2 933,9 mlrd so'm) da qayd etildi.

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Oltiariq t	3,9	95,7
Qo'shtepa t	3,2	98,3
Bag'dod t	3,0	97,0
Buvayda t	2,5	99,8
Beshariq t	2,8	96,3
Quva t	3,0	98,3
Uchko'prik t	2,4	99,6
Rishton t	3,3	98,0
So'x t	0,6	92,3
Toshloq t	2,3	96,6
O'zbekiston t	2,8	99,1
Farg'ona t	2,9	79,5
Dang'ara t	2,4	99,6
Furqat t	1,8	99,5
Yozyovon t	1,6	97,0
Farg'ona sh	0,9	90,6
Qo'qon sh	0,4	94,2
Quvasoy sh	1,9	92,3
Marg'ilon sh	0,6	99,7

hajmi, trln so'mda
 ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **31 585,0** mlrd so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **90,2 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **113,9 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Oltiariq t	909,6	95,8
Qo'shtepa t	1 016,7	99,0
Bag'dod t	877,9	97,8
Buvayda t	1 484,9	98,6
Beshariq t	980,4	96,8
Quva t	1 406,4	98,2
Uchko'prik t	2 018,0	58,0
Rishton t	769,8	96,2
So'x t	405,1	98,7
Toshloq t	610,6	98,4
O'zbekiston t	706,9	97,4
Farg'ona t	1090,9	99,2
Dang'ara t	485,0	85,4
Furqat t	394,8	97,8
Yozyovon t	618,7	98,4
Farg'ona sh	4 964,6	93,2
Qo'qon sh	5 208,7	90,8
Quvasoy sh	647,6	99,0
Marg'ilon sh	4 728,5	96,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri (5 208,7 mlrd so'm), Farg'ona shahri (4 964,6 mlrd so'm), Marg'ilon shahri (4 728,5 mlrd so'm), Uchko'prik tumani (2 018,0 mlrd so'm), Buvayda tumani (1 484,9 mlrd so'm) va Quva tumani (1 406,4 mlrd so'm)) hissasiga to'g'ri keldi.


2020 va 2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd so'mda
 ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd so'mda



2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **21 950,9** mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **76,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **112,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona sh. (**6 572,6** mlrd so'm), Qo'qon sh. (**4 522,1** mlrd so'm), Marg'ilon sh. (**2 036,5** mlrd so'm), Oltiariq tumani (**953,9** mlrd so'm), Uchko'prik tumani (**734,6** mlrd so'm), Buvayda tumani (**661,7** mlrd so'm) va Toshloq tumani (**639,2** mlrd so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-dekabr oylarida)

8 982,2	Savdo xizmatlari	32,4
5 873,1	Moliyaviy xizmatlar	21,2
5 234,5	Transport xizmatlari	19,9
1 763,0	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,6
1 451,1	Shaxsiy xizmatlar	5,2
1 807,3	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,9
803,4	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,9
808,6	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0
611,9	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,6
596,2	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,4
561,7	Ijara xizmatlari	2,2
290,3	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,1
866,8	Boshqa xizmatlar	3,5

Hajmi, mlrd so'mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **32,4 %** (**8 982,2** mlrd so'm), moliyaviy xizmatlar **21,2 %** (**5 873,1** mlrd so'm), transport xizmatlarida – **19,9 %** (**5 234,5** mlrd so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,6 %** (**1 763,0** mlrd so'm), shaxsiy xizmatlar **5,2 %** (**1 451,1** mlrd so'm) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlarda **5,9 %** (**1 807,3** mlrd so'm) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda **1,1 %** (**290,3** mlrd so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **504 722,5** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **61,1** % ini tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Farg'ona sh.	28,3	23,6
Qo'qon sh.	21,0	30,5
Quvasoy sh.	16,0	69,8
Marg'ilon sh	13,0	92,9
Oltiariq t.	166,7	99,4
Qo'shtepa t.	6,6	6,5
Bag'dod t.	11,5	85,9
Buvayda t.	18,2	100,0
Beshariq t.	11,4	69,9
Quva t.	72,9	88,8
Uchko'prik t.	51,3	53,2
Rishton t.	9,8	81,8
So'x t.	4,9	100,0
Toshloq t.	8,3	77,5
O'zbekiston t.	10,3	83,7
Farg'ona t.	7,1	40,5
Dang'ara t.	23,0	97,6
Furqat t.	14,0	100,0
Yozyovon t.	6,3	100,0

hajmi, mln AQSH dollar

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – **100,0** %, Furqat tumanida – **100,0**%, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Buvayda tumanida – **100,0** % Oltiariq tumanida – **99,4** %, Dang'ara tumanida – **97,6** %, Marg'ilon shahrida – **92,6** %, Quva tumanida – **88,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida – **6,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **1 079,6** million AQSH dollarini yoki jami importning **82,4%** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi So'x tumanida – **100,0%**, Furqat tumanida – **100,0** %, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Marg'ilon shahrida – **99,9** %, Toshloq tumanida – **99,8** %, Buvayda tumanida – **99,4%**, hamda Beshariq tumanida **98,6** % ni tashkil etdi.

Oltiariq t	97,0
Qo'shtepa t	51,9
Bag'dod t	98,8
Buvayda t	99,4
Beshariq t	98,6
Quva t	97,1
Uchko'prik t	78,2
Rishton t	81,3
So'x t	100,0
Toshloq t	99,8
O'zbekiston t	97,9
Farg'ona t	89,6
Dang'ara t	79,2
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Farg'ona sh	59,3
Qo'qon sh	88,7
Quvasoy sh	93,8
Marg'ilon sh	91,7


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



93,4 %

Yuk
tashishda


2024- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.



95,9 %

Yuk
aylanmasida


2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,9 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,8 %** ni tashkil qildi.



96,5 %

Yo'lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,5 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,5 %** ni tashkil qildi.




97,7 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,4 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 780 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 712 (40,0 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 990 (55,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 84 (4,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,1 % (749 ta), xizmatlar sohasida – 28,7 % (511 ta), sanoatda – 18,8 % (334 ta), qurilishda – 7,4 % (131 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,1 % (55 ta) ni tashkil etdi.

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

123	Oltiariq tumani	6,9
41	Qo'shtepa tumani	2,3
62	Bag'dod tumani	3,7
58	Buvayda tumani	3,3
69	Beshariq tumani	3,9
75	Quva tumani	4,2
101	Uchko'prik tumani	5,7
72	Rishton tumani	4,0
66	So'x tumani	3,7
62	Toshloq tumani	3,5
77	O'zbekiston tumani	4,3
79	Farg'ona tumani	4,4
79	Dang'ara tumani	4,4
40	Furqat tumani	2,2
54	Yozyovon tumani	3,0
327	Farg'ona sh.	18,4
196	Qo'qon sh.	11,0
52	Quvasoy sh.	2,9
144	Marg'ilon sh.	8,1


Soni, dona

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona shahri (327 ta), Qo'qon shahri (196 ta), Marg'ilon shahri (144 ta), Oltiariq (123 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida **704** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **712** taga yetgan yoki 2020- yilning IV choragiga nisbatan **8** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilda **871** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrida **990** ta yoki **119** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **69** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **78** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan **9** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2020- yilning IV choragida **698** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **737** taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **39** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2020- yilning IV choragida **525** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragida **804** ta yoki **279** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2020- yilning IV choragida **91** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **82** tani tashkil etib, **9** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **42,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **40,0** % ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **2,8** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilda **53,0** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragida **55,6** % yoki **2,6** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2020- yilda **4,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **4,4** % ga yetgan yoki **0,2** % ga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **47,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **45,4** % ga yetgan yoki 2020- yilning IV choragida nisbatan **2,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **48,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrda **49,5** % yoki **0,8** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2020- yilning IV choragida **3,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,1** % yoki **1,5** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning IV choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda – 42,9 % ni, sanoatda – 40,4 % ni, qurilishda – 38,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – 58,2 % ni, xizmatlar sohasida – 57,9 % ni qurilishda 55,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – 9,1 % ni, xizmatlar sohasida – 5,5 % ni, qurilishda – 5,3 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **50,7** % ni, xizmatlar sohasida – **48,7** % ni va qurilishda – **48,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **52,7** % ni, qurilishda – **50,4** % ni, sanoatda – **49,7** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda **2,7** % ni, xizmatlar sohasida – **2,3** % ni, qurilishda – **1,5** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	40,5	52,6	6,9
Band bo'lganlar soni	23,4	72,0	4,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	34,2	61,8	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,3	68,0	3,7
Raqobat muhiti	41,7	55,4	2,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	41,3	56,5	2,2
Band bo'lganlar soni	20,4	77,4	2,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,1	67,8	2,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,7	67,5	1,7
Raqobat muhiti	40,7	57,6	1,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli